

O'zbekistonda chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-iyul oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Chakana savdo tovar aylanmasi
- II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
- III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi
- IV. Uslubiy tushuntirishlar
- V. Aloqador boshqa havolalar


I. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-avgust holatiga ko'ra, chakana savdo sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **90 683** tani tashkil etdi. Shundan faoliyatdagi yirik korxonalar soni **424** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni esa **90 259** tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, O'zbekistonning chakana savdo tovar aylanmasi **310 901,9** mlrd so'mga yetib, 2025-yilning mos davriga nisbatan real hisobda **20,2** foizga oshdi. Yirik korxonalarning tovar aylanmasi **55 228,1** mlrd so'mni (real hisobda o'sish sur'ati – **126,9** %), kichik tadbirkorlik subyektlariniki esa **255 673,8** mlrd so'mni (real hisobda o'sish sur'ati – **118,9** %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari


2026-yil yanvar-iyul oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (oylik)

**Yirik korxonalar va kichik tadbirkorlik subyektlarining
chakana savdo umumiy hajmidagi ulushi**
yanvar-iyul oylari



II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-avgust holatiga ko'ra, ulgurji savdo sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **57 163** tani tashkil etib, shundan **421** tasi yirik korxonalar, **56 742** tasi esa kichik korxonalar va mikrofirmalardir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyul oylarida O'zbekistonning ulgurji tovar aylanmasi hajmi **396 827,6** mlrd so'mga yetgan va 2025-yilning mos davriga nisbatan real hisobda **15** foizga oshgan.

Yirik korxonalarning ulgurji savdo aylanmasi **104 578,7** mlrd so'mni (real hisobda o'sish sur'ati – **131,7** %), kichik tadbirkorlik subyektlarining savdo aylanmasi esa **292 248,9** mlrd so'mni (real hisobda o'sish sur'ati – **110** %) tashkil qildi. Respublikaning umumiy ulgurji savdo hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **73,6** % ga teng bo'ldi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi
2026-yil yanvar-iyul oylari, mlrd so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
Ulgurji savdo hajmi (oylik)

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari

2026-yil yanvar-iyul oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)


III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-avgust holatiga ko'ra, umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **29 582** ta bo'lgan. Shulardan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **147** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni esa **29 435** tani tashkil qilgan.

2026-yilning yanvar-iyul oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi **170 976,1** mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan real hisobda **16,7** foizga oshdi. Bunda tovar aylanmasining **77,6** foizi kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, yirik korxonalarning ulushi **22,4** foizni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati dinamikasi

2026-yil yanvar-iyul



IV. Uslubiy tushuntirishlar

Ulgurji va chakana savdo aylanmasi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda ulgurji va chakana savdo korxonalari va tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, "2008-yilgi milliy hisoblar tizimi (MHT-2008)", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008 y.), "Chakana savdo aylanmasini statistik kuzatish va uning fizik hajm indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar" (MDH Statistika qo'mitasi, 2011-y.) kabi xalqaro qo'llanma va tavsiyalardan foydalanilgan.

Ulgurji va chakana savdo aylanmasi statistikasi norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash natijalarini inobatga olgan holda hisoblanadi.

Ayrim hollarda yakuniy qiymat va qo'shiluvchilar yig'indisi o'rtasidagi kichik farqlar ma'lumotlarning yaxlitlanishi bilan izohlanadi.

V. Aloqador boshqa havolalar

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)
Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)
Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)
Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

Tayyorlash uchun mas'ul:
*Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi*

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1290)

